



## ALLERGIYA KASALLIKLAR VA ULARNI DAVOLASH USULLARI

---

*Sadullayeva Gulmira G'aybullo qizi*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti*

*Najimov Ruslan Rasul o'g'li*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, talabasi*

*najimovruslan647@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada allergik kasalliklarning kelib chiqishi, turlari va oldini olish chora-tadbirlari yoritilgan. Allergik kasalliklar geterogenligi, irsiy omillarning hamda tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri oqibatida allergenlar spektri kengayib bormoqda. Allergik rinit dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hozirgi ushbu kasallikdan aholining 30%-50% aziyat chekmoqda. Ushbu patologiyaning rivojlanishida tibbiy-biologik va sanitar-gigienik omillarning ta'siri bilan bir qatorda atrof muhit omillarining ta'siri ham muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** allergiya, rinit, kasallanish, ekzoallergenlar, endoallergenlar, oldini olish choralari.

Allergiya - yunoncha "alios" begona va "ergo" - ta'sir so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u organizmning begona, yot moddalarga o'zgacha ta'sir qilish qobiliyatini anglatadi. Dunyoda allergik kasalliklar shakllanishi va tarqalishiga tashqi muhit omillarining ta'siri, yangidan-yangi allergenlarning paydo bo'lishi, mikroekologiyaning buzilishi, stress sabab bo'lmoqda. Eng ko'p tarqalgan etiologik muhim allergenlar ichida o'simliklar changi alohida ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda ularning 700 dan ortiq turi aniqlangan. Allergik kasalliklar geterogenligi, irsiy omillarning hamda tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri oqibatida allergenlar spektri kengayib bormoqda. Allergik rinit dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hozirgi ushbu kasallikdan aholining 30%-50% aziyat chekmoqda. Ushbu patologiyaning rivojlanishida tibbiy-biologik va sanitar-gigienik omillarning ta'siri bilan bir qatorda atrof muhit omillarining ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Atmosfera havosining ifloslanishi allergik rinitning kelib rivojlanishiga va qaytalanishiga sabab bo'lishi olimlarning tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha tasdiqlanmoqda. Haqiqiy allergik reaksiya boshlanishidan oldin ma'lum bir davr o'tib, bunda organizmning unga birinchi bor tushgan moddaga sezgirligi ortib boradi, bu sensibilizatsiya deb ataladi. Sensibilizatsiya yuzaga kelishi organizmda unga ilk bor tushgan allergenga javoban alohida oqsil moddalar antitelolar yoki allergen bilan o'zaro ta'sir qila



oladigan limfotsitlar paydo bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Paydo bo'lgunicha allergen organizmdan chiqarib yuborilgan bo'lsa, hech qanday kasallik alomati ko'zga tashlanmaydi. Agar allergen chiqib ketmagan bo'lsa yoki chiqib ketganidan keyin organizmga takror tushsa, bunda u yurakdagi antitelolar yoki limfotsitlar bilan o'zaro ta'sirlashib, allergiyaga sabab bo'ladi. Natijada bir qancha biokimyoviy jarayonlar yuzaga kelib, gistamin, serotonin kabi bir qancha moddalar ishlab chiqib, hujayralar, to'qimalar va a'zolari zararlaniradi, shu tariqa maxsus, ya'ni ilgari organizmga ta'sir qilgan allergenga javoban reaksiya ro'y berib, allergik kasallik paydo bo'ladi. Soxta reaksiyalar esa organizm allergenga birinchi bor duch kelganidayoq yuzaga keladi. Bunda sensibilizatsiya davri bo'lmaydi. Soxta reaksiyalar ko'pincha dori-darmonlar va oziq-ovqatlarga nisbatan ro'y beradi. Organizm allergenga duch kelganida doim ham allergik kasallik sodir bo'lavermaydi. Chunki irsiyat, nerv va endokrin sistemalar muhim ahamiyat kasb etadi, kasallikka asosan bu sistemalar funksiyasining buzilishi va og'ir ruhiy kechinmalar yuzaga kelishi, sabab bo'ladi. Allergiyaning oldini olish sensibillovchi ta'sirga ega bo'lgan moddalarning organizmga qayta takror kirishiga va organizm himoya funksiyalari buzilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishdan iborat bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, immunetet tizimi organizmga begona ta'sirlardan himoya qiladi. Organizmda himoya oqsillarini immunoglobulinlar ishlab chiqadi. Insonlarda tashqi ta'sirlar (daraxt gullari changi, uy changi, maishiy kimyo, hayvonlar juni, o'simliklar changi, o'simlik oqsillari, zamburug'lar)ga nisbatan qonda immunoglobulin E ortib ketadi. Ba'zi insonlarda immunoglobulin E miqdorining ortib ketishi qonimizdagi gistamin va gistaminsimon moddalar ko'p bo'lishi va allergik reaksiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Allergiya rivojlanishida irsiy moyillik asosiy rol o'ynaydi. Ota-onadan biri allergiya bilan og'risa bolada allergiya yuzaga kelishi 30-40%, ham ota, ham onada allergiya bo'lsa, bolada kasallik rivojlanish ehtimoli 70-75% gacha ortishi mumkin. Allergik kasalliklarni davolashda kasallik paydo bo'lgan vaqtiga e'tibor berishimiz kerak. Allergik kasalliklar uchun bu juda muhim bo'lib, kasallik qanchalik tez rivojlanib borsa, organizm uchun shunchalik xavfli hisoblanadi. Allergiya surunkali kasallik bo'lgani uchun allergiyani butunlay organizmdan yo'qotib yuborish anchagina qiyin. Allergiyani davolashda keng qo'llaniladigan davolash usuli bu immunoterapiya usuli hisoblanadi. Allergen miqdori davolash kursi davomida oshirilib boriladi. Bu usul bilan davolash davomida allergik kasallikning ozayishiga yoki butunlay davolanib ketishiga erishiladi. Kimyoviy dorilar bilan davolashda esa allergiya belgilarini bartaraf etishga yordam beradi, ammo uni butunlay davolay olmaydi. Har qanday dori vositasini ishlatishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish lozim. Allergik



dorilar tarkibida antigistaminlar: ular allergik reaksiyani bir qismi bo'lib, tanada ishlab chiqariladigan gistaminning ta'sirini to'xtatadilar. Ba'zi antigistaminlar bolalar uchun xos emas. JSST ning ma'lumotlariga ko'ra allergik kasalliklar yer yuzi aholisining 30 foizini tashkil qilishi va turli mamlakatlarda kasallanish darajasi bir-biridan ancha farq qilishi aniqlangan. Allergik kasalliklar o'sma kasalligiga nisbatan 30 marta, revmatizmga nisbatan 2000 marta ko'p tarqalgan. Nafas yo'llarining allergik kasalliklari tarqalishiga iqlimning o'ziga xos xususiyati va geografik sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Shimoliy Amerika eskimoslari orasida bronxial astma juda kam hollarda birta-ikkita aniqlangan bo'lsa, bir vaqtning o'zida AQSh da katta yoshdagi aholining 5 foizi bu kasalik bilan azoblanadilar. Boltiq bo'yi aholisi orasida bronxial astma bilan kasallanish ko'rsatkichi har 1000 kishiga 8 ta to'g'ri kelsa, Shimoliy Kavkaz tog'larida esa bu kasallik umuman qayd etilmagan. Amerika Qo'shma Shtatlarida 20 mln kishi pollinoz bilan, 9 mln kishi bronxial astma bilan va yana shuncha kishi qavarchiqlar va Kvinke shishi bilan kasallanganlar. Finlandiyada 20 foiz aholida, Shveysariyada 8,4 foiz aholida allergiya aniqlangan. Qishloq va shahar aholisi orasida kasallik tarqalish ko'rsatkichi bir xil emas. Masalan, Sankt-Peterburgning shahar chekkasida yashaydigan aholisi orasida respirator allergik kasalliklari shahar markaziga qaraganda 1,5 marta kam uchraydi. Respublika va viloyat davolash muassasalariga murojaat qilgan bemorlar orasida shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan 10 marta ko'p. Bu yerda ekologiya ham katta ahamiyat kasb etadi. Bir respublikaning turli qismlarida allergik kasalliklar tarqalishi bir tekis emas. Qozog'istonning janubiy mintaqalarida pollinoz 10-15 foiz aholida kuzatilgan bo'lsa, shimolida esa aholining faqat 1 foizida qayd etilgan. Atmosfera havosi yuqori darajadi ifloslangan mintaqalarda (masalan, metallni qayta ishlash, sement chiqarish korxonalarini, issiqlik elektor stansiyalari yaqinida joylashgan rayonlarda) allergik kasalliklar bilan davolash muassasalariga murojaat qilgan bemorlar soni toza havoli hududlarga qaraganda 8-10 marta ko'proq. Shunday holatni hatto bir shaharning o'zida ham ko'rish mumkin. Gruziyaning ayrim rayonlarida allergik kasalliklar bilan kasallangan bemorlar soni 1000 kishiga 11,4 kishini tashkil qiladi, Krasnodar o'lkalarida esa 233,8 ta, ya'ni 20 marta ko'proq. Albatta, bu yerda geografik iqlim va ekologik omillarning ham ta'siri bo'ladi. Hozirgi vaqtda allergen bo'lishi mumkin bo'lgan mingdan ortiq turli moddalar aniqlangan. Ular ikkita katta guruhga bo'linadi: ekzoallergenlar va endoallergenlar.

I. Ekzoallergenlar - insonni o'rab turgan muhitda yashaydi va o'z navbatida ular ham qator kichik guruhlarni tashkil qiladi:



Oziq-ovqat allergenlari 2 guruhga bo'linadi: Birinchisi - shartsiz (obligat) allergenlar: sitrus mevalar, shokolad, kofe, asal, mevalar, yong'oqlar, tuxum, baliqlar, sut, tovuq go'shti; ikkinchi - shartli (fakultativ) guruh bo'lgan: olma, sabzi, kartoshka, un va boshqalar. Epidermal allergenlar (turli hayvonlarning juni, ot qayzg'og'i). Epidermal allergenlarga nisbatan sezuvchanlik ko'pincha tez sodir bo'ladigan reaksiyalar tipida va odatda oziq-ovqat va uy-ro'zg'or allergiyalari bilan birgalikda kechadi. Bolalarda bu kasallik 20 foiz holatlarda respirator allergoz tipida o'tadi. Bakterial allergenlar (ko'proq shartli patogen mikroblar - streptokokklar va boshqalar). Sezuvchanlik odatda tishlarda, bodomcha bezlarda, ichaklarda, jigarda, bronx-o'pka yo'llarida surunkali infeksiya o'chog'i bo'lgan hollarda rivojlanadi. Bunda kasallikning infeksiyon-allergik turi aniqlanadi: astma, rinit, qavarchiq va Kvinke shishi. Zamburug'li allergenlar (mog'or zamburug'larining va achitqi zamburug'larining sporalari). Asosan patogen bo'lmagan zamburug'lar turi. Virusli allergenlar (hujayra protoplazmasi bilan oldindan birikkan virus). Gelmintli allergenlar (gijjalari va ularning zaharlari).

- Insekt allergenlar (asalari zahri, chivinlar, hasharotlar ustki qobig'i qoldiqlari).

II Endoallergenlar. Ular sog'lom inson organizmida doimo joylashgan, lekin qalin qobiqqa o'ralgan bo'ladi, umumiy qon oqimiga tushmaydi. Shuning uchun faqat ularni boshqa to'qimalardan ajratib turuvchi to'siqlar buzilgandagina o'z ta'sirini namoyon qiladi. Ulardan eng asosiylari: qalqonsimon bezning tireoglobulini, muskul tolalaridagi mielin, ko'z gavhari oqsili, nerv o'tkazuvchi tolalar oqsili, sperma (urug' suyuqligi). Nafas yo'llari allergik kasalliklarini oldini olish usullariga kasallik oldi davrida ishlab chiqarishdagi zararli omillarga qarshi kurashish, profilaktik ko'riklar o'tkazish, kasallik xurujini oldini olish va davolashlar kiradi. Allergik kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari har tomonlama bo'lishi kerak, ular birlamchi va ikkilamchi tadbirlarga bo'linadi. Birlamchi chora-tadbirlarga, asosan atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy umum- davlat chora-tadbirlarini ishlab-chiqarish, yashash sharoiti va mehnat sharoitini qulaylashtirish, ishlab chiqarishdagi kasbga oid zararli omillarga qarshi kurashish kiradi. Bunga yana tibbiy (dispanser ko'rigi) va alohida xususiy tadbirlar (chekishni tashlash) ham kiradi. Ikkilamchi chora-tadbirlarga bular bemorlarni shifoxonalarda, poliklinikalarda, tibbiy sanitar qismlarida, sanatoriyalarda davolash va sog'lig'ini tiklash, allergologik kuzatish usullarini tashkil qilish kiradi. Allergiyaning infeksiyaga oid turlarida infeksiya o'choqlarini o'z vaqtida davolash-tozalash (tonzillit, sinusit) kerak. Oziq-ovqat mahsulotlariga allergiyasi bo'lgan bemorlarning kundalik ovqat mahsulotlaridan allergenlarni (shokolad, sitrus mevalar) istisno qilish. Allergik kasalliklari bo'lgan



barcha bemorlarga uy-ro'zg'orda ishlatiladigan kimyoviy moddalardan foydalanish man etiladi. Organizmni chiniqtirish va unchalik og'ir bo'lmagan jismoniy mehnat bilan shug'ullanish ham allergik kasalliklarni oldini olishda muhim o'rin tutadi. Allergik kasalliklari bo'lgan bemorlarga sportning ayrim turlari - yengil atletika, suzish, tennis o'ynash mashg'ulotlari bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Allergik kasalliklarini oldini olishda kasbni to'g'ri tanlash ham jiddiy ahamiyatga ega. Kanalarga sezuvchanlik ortishi bilan yuzaga kelgan bronxial astma kasalligini oldini olish uchun ko'rpa-to'shaklarni quyosh nurlarida nurlantirish tavsiya qilinadi. Kunduzgi vaqtda 2 soat davomida nurlantirish kanalarni butunlay qirilib, yo'q bo'lishiga olib keldi. O'rin-ko'rpalarga 5 foizli borat kislota yoki 5 foizli tuz eritmasi bilan ishlov berishda ham ijobiy natijalar olindi. Bunda SG foizli kanalar qirilib, yo'q bo'ldi.

Xulosa qilib, aytganda organizmni begona ta'sirga ta'siri allergiyadir. Organizmda gistamin ortishi allergik kasalliklarni kuchayishiga olib keladi. Antigistamin xususiyati esa gistaminga qarshi ya'ni organizmdagi gistaminni kamaytiradi. Me'yordan oshiqcha iste'mol qilingan har qanday maxsulot ham keyinchalik allergiyaga olib kelishi mumkin. Allergik kasalliklarini oldini olish omillaridan biri maxsus giposensibilizatsiya hisoblanadi. O'z vaqtida o'tkazilgan immunoterapiya kasallikni xurujini oldini oladi. Bemorlarni sog'ligini kuzatib borish usuli (dispanserizatsiya) sanator- kurort sharoitida davolash ham oldini olish chora-tadbirlarining eng samarali usullari xisoblanadi. Bunda kurort joylarning geografik iqlim sharoiti, qulay harorat, o'rtacha namlik, quyosh nurlari juda ham yuqori qizdirmaydigan sharoitlari, atmosfera havosida polyutantlar, muallaq holda turuvchi birikmalar bo'lmasligi yetakchi o'rin tutadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M. M. Abdulxayeva, O' M. Mardonov. «Kimyo», Toshkent, «Ozbekiston» nashriyoti, 2002.
2. A. A. Abdusamatov, R. Mirzayev, R. Ziyayev. «Organik kimyo», Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 2002.
3. Броварский В. Д., Турдалиев А. Т., Мирзахмедова Г. И. Воздействие температуры окружающей среды на пчел и растения //Научное обозрение. Биологические науки. -2020. - №. 3. - С. 43-48.
4. Турдалиев, А. Т., Аскарлов, К. А., Жалилова, Ш. А., Гуломова, З. А., & Мусаев, И. И. (2019). Физико-химические, геохимические особенности и их влияние на почвенно-экологическое состояние гидроморфных почв. Научное обозрение. Биологические науки, (4), 44-49.



5. Аскарлов К. А., Турдалиев А. Т., Сотиболдиева М. М. Геохимия микроэлементов в почвах Центральной Ферганы //Современные научные исследования и разработки. -2018. - Т. 2. - №. 5. - С. 42-45.
6. Turdalievich T. A., Gulyam Y. Morphological features of pedolytical soils in Central Ferghana //European science review. - 2016. - №. 5-6. - С. 14-15.
7. Turdaliev, A., Yuldashev, G., Askarov, K., & Abakumov, E. (2021). Chemical and biogeochemical features of desert soils of the central Fergana. Agriculture, 67(1), 16-28.
8. Турдалиев А. Т., Аскарлов К. А., Мирзаев Ф. А. У. Морфологические особенности орошаемых почв Центральной Ферганы //Почвы и окружающая среда. - 2019. - Т. 2. -№. 3. - С. 6.
9. Броварский, В. Д., Турдалиев, А. Т., & Мирзахмедова, Г. И. (2020). Воздействие температуры окружающей среды на пчел и растения. Научное обозрение. Биологические науки, (3), 43-48.
10. <https://fingernal.ru/uz/disease/pchelinyi-yad-ego-osobennosti-i-primeneniye-kak-pchelinyi-yad-primenyetsya-v/>.